



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31 dekabrda 1059-son Qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb yuritiladi) vazir o‘rinbosarlari, vazirlikning boshqarma va bo‘limlari, hududiy boshqarmalar, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya) va Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi (keyingi o‘rinlarda Chora-tadbirlar rejasi) tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Xalq ta’limi tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi (A.Tagayev), Maktabdan tashqari ta’lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi (M.Karabayev), O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov), O‘quvchi va yoshlar tashkilotlari bilan ishlash boshqarmasi (R.Tolipov), Respublika ta’lim markazi (X.Daminov) Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning o‘z muddatida bajarilishini ta’minlasin.

5. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (A.A.Umarov) Xalq ta’limi tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq tadbirlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini tashkil etsin.

6. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Sh.Shermatov

Toshkent sh.,
2020-yil 04-yanvar,
7 - son